

Date: 25<sup>th</sup> October-2024

XALQ OG`ZAKI IJODIDA BOLALAR VA MAVSUM MAROSIM  
QO`SHIQLARINING AHAMIYATI

**Karimova Ozoda Abdumutalib qizi**  
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO`TAU,  
1-kurs magistr

**Annotatsiya:** Maqolada mavsum marosim qo`shiqlari xalq og`zaki ijodining muhim tarkibiy qismi sifatida ekanligi, uning o`ziga xos jihatlari, shuningdek, bolalar qo`shiqlarining bolalar folkloridagi umuman olganda, bolalar hayotidagi o`rni va bugungi kundagi ahamiyati haqida gap boradi.

**Аннотация:** В статье говорится о том, что песни сезона связаны с важным сочетанием фольклора, его особенностей, уровня, детских песен, детского фольклора, багги-буги.

**Kalit so`zlar:** Bolalar folklori, bolalar qo`shiqlari, mavsum marosim qo`shiqlari, xalq og`zaki ijodi.

**Ключевые слова:** детский фольклор, детские песни, сезонные песни, фольклор.

Yer yuzidagi jamiyki xalq o`zining adabiy merosi, ya`ni xalq og`zaki ijodiga ega va u o`sha xalqning urf-odatlarini, an`analari, qadriyatlarini hamda adabiy muhiti nechog`lik go`zal, ma`naviyati yuksak ekanligini ko`rsatib beruvchi adabiy turlardan biri hisoblanadi. Masalan, doston, ertak, qo`shiq, maqol, matal, topishmoq, askiya, mif, bolalar folklori va hokazo.

Bu janrlarning har biri o`zining alohida o`rniga ega bo`lib, u xalq ma`naviyatini yuksaltirishda munosib ahamiyat kasb etadi. Ular orasida bevosita farzandlar ma`naviyatiga daxldori hisoblangan bir janr borki, u jismoniy tarbiyaga uyg`unligi bilan ham doimo e`tiborli bo`lib kelgan. Bu – bolalar folklori. Xo`sh, uning ma`naviy va jismoniy bo`linishlarini qay yo`nalishlar farqlab turadi. Masalan, allayu ertaklar bolalarning ma`naviy dunyosini boyitsa, bekinmachoq, chillak, varrak uchirish kabi o`yinlar ularning jismonan chiniqishlariga sabab bo`lgan. Qolaversa, ular yosh avlodning xalq rasm-rusumlari va og`zaki ijodi og`ushida ulg`ayishlariga ham munosib hissa qo`shgan. Buni juda yaxshi tushungan ota-bobolarimiz esa ularni hatto zamon pedagogikasi talablari asosida asarlar shakliga keltirib nashr etishgan. Xususan, bolalar uchun yaratilgan bunday asarlarning tili sodda, mazmuni esa esda qolarli bo`lishiga alohida e`tibor qaratishgan. Shuningdek, mazkur kitoblar, albatta, tarbiyaga ahamiyat qaratgani holda, bolalarda xalqiga, vatani, qadriyati va ajdodlariga nisbatan hurmat ruhini shakllantirish uchun ham xizmat qilgan.

Dunyoda birorta xalq yo`qki, turli munosabatlar bilan ommaviy bayramlarni nishonlamaydigan. Mavsumlar, diniy e`tiqodlar, tarixiy voqea-hodisalar, milliy udumlar xalq bayramlari mazmunini tashkil etadi. Binobarin, bayramlarning o`tkazilishiga qarab, ulardagi so`z bilan bog`liq lavhalar mundarijasiga qarab o`sha xalqning tarixi, milliy xususiyatlari haqida tasavvur hosil qilish mumkin. Chunki bunday xalq shodiyonalarida



Date: 25<sup>th</sup> October-2024

raqsga tushiladi, qo'shiqlar aytiladi, milliy liboslar kiyiladi, turli o'yinlar o'ynaladi, taomlar pishiriladi, tomoshalar uyushtiriladi.

Xalq qo'shiqlari ichida mavsum marosim qo'shiqlari o'ziga xos go'zalligi va jozibasiga hamda turli qiziqarli udumlariga ega ekanligi bilan ajralib turgan. Olimlarning ma'lumot berishlaricha, mavsum-marosimga oid o'zbek xalq bayramlarining tarixi minglab yillar bilan o'lchanar ekan. Ularning ayrimlari yil fasllarining qulay yoki noqulay kelishi bilan ham bog'liq bo'lgan. Masalan, yil quruq kelib, yomg'ir yog'masa "Yomg'ir chaqirish" marosimi ("Sust xotin"); bug'doy, sholi boshloqlari yetilgan paytda shamol ularni payhon qilsa, shamol to'xtatish ("Choy momo"); don mahsulotlarini shopirish paytida shamol bo'lmasa, shamol chaqirish ("Yo, Haydar"); yil sovuq kelsa, quyoshga topinish; umuman, omadsiz yilda qurbonlik keltirish marosimlari o'tkazilgan. Al Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" kitobida "Navro'z", "Ramush og'am", kabi o'ndan ortiq mavsum marosim bayramlari xususida ma'lumot beriladi. Folklorning mavsumiy qo'shiqlari markaziy Osiyo mintaqasi xalqlari oilaviy va jamoaviy bayramlarni o'tkazishda, dehqonchilik, diniy marosimlar vaqtida musiqadan keng foydalanilgan. To'y marosimlarida cholg'u kuylari, qo'shiq va raqslar muhim o'rin tutadi. Turli xil tadbirlarda bolalar qo'shiq va raqslaridan o'rinni foydalanish shu tadbirning maroqli kechishiga, badiiy timsollarning aniq ravshan yechimiga sharoit yaratadi.

Qo'shiqlar bolalar uchun (va kattalarga) juda ko'p oddiy saboqlarni o'rgatishning ajoyib usuli hisoblanadi, chunki ular faqat qo'shiq aytish va so'zlarni so'zlash (bu ma'noni anglashda yordam beradi) emas, balki qo'shiq ham katta hajmdagi mnemonik qurilma sifatida xizmat qiladi. xotirani takomillashtirishda yordam beradi. Xalq qo'shiqlari ichida tili sodda, quloqqa yoqimli eshutilishi bilan ajralib turuvchi folklor namunasi bu - bolalar qo'shiqlaridir. Ular ko'pincha mavsumiy xususiyatlarga ega bo'lib, odatda qo'l-oyoq harakatlari bilan ijro etiladi. O'yinlar ham, qo'shiqlar ham bolalarning aqliy va jismoniy kamolotga yetishiga yordam beradi, ularda zavq uyg'otadi. "Boychechak", "Oftob chiqdi olamga", "Oq terakmi ko'k terak?", "Chittigul", "Laylak keldi, yoz bo'ldi", "Yomg'ir yog'aloq" kabi o'nlab qo'shiqlar ko'proq yil fasllariga, qush va hayvonlarga bag'ishlangan bo'lib, bahor kelishi, yomg'ir yog'ishi, quyoshning olamni isitishi, ilk chechak, birinchi qor kabi fasl va tabiat hodisalari bilan bog'liq. Shuningdek, qo'shiqlarda kuylanayotgan obrazga nisbatan munosabatlar o'z badiiy ifodasini topadi.

Xalq og'zaki ijodi namunalarning har biri o'zining alohida o'rniga ega bo'lib, u xalq ma'naviyatini yuksaltirishda munosib ahamiyat kasb etadi. Ular orasida bevosita farzandlar ma'naviyatiga daxldori hisoblangan bir janr borki, u jismoniy tarbiyaga uyg'unligi bilan ham doimo e'tiborli bo'lib kelgan. Bu – bolalar folklori. Xo'sh, uning ma'naviy va jismoniy bo'linishlarini qay yo'nalishlar farqlab turadi. Masalan, allayuu ertaklar bolalarning ma'naviy dunyosini boyitsa, bekinmachoq, chillak, varrak uchirish kabi o'yinlar ularning jismonan chiniqishlariga sabab bo'lgan. Qolaversa, ular yosh avlodning xalq rasm-rusumlari va og'zaki ijodi og'ushida ulg'ayishlariga ham munosib hissa qo'shgan. Buni juda yaxshi tushungan ota-bobolarimiz esa ularni hatto zamon pedagogikasi talablari asosida asarlar shakliga keltirib nashr etishgan. Xususan, bolalar



Date: 25<sup>th</sup>October-2024

uchun yaratilgan bunday asarlarning tili sodda, mazmuni esa esda qolarli bo'lishiga alohida e'tibor qaratishgan. Shuningdek, mazkur kitoblar, albatta, tarbiyaga ahamiyat qaratgani holda, bolalarda xalqiga, vatani, qadriyati va ajdodlariga nisbatan hurmat ruhini shakllantirish uchun ham xizmat qilgan. O'zbeklar bolalar folkloriga oid asarlarni bir necha asrlar oldinoq hozirgi zamon pedagogikasi talablarini his etgandek yaratganlar. Aslida xalq bu talablarni o'zicha hisobga olgan. Pedagogika fani esa ularni keyinchalik kashf qilgan. Xususan bolalar uchun yaratilgan asarlarning tili sodda, mazmuni esa esda qoladigan bo'lishi lozim. Shuningdek bu asarlar albatta tarbiyaviy ahamiyat kasb etgani holda, bolalarda, xalqiga, vataniga, qadriyatlariga, ajdodlariga hurmat ruhini shakllantirishi kerak. Bunday namunalar farzandlarimizning ma'rifiy ozuqasi hisoblanadi. Bo'rinig yirtqichligini, tulkinging ayyorligini ular dastlab o'zlariga atalgan ertaklardan bilib oladilar. Ayni paytda, bunday asarlar bolada go'zallikka intilish tuyg'usini uyg'otishga ham mo'ljallangan bo'ladi. Otabobolarimizdan avloddan-avlodga o'tib kelayotgan bolalar folklor qo'shiqlari, raqslarini kelajak avlodga yetkazish bizning burchimizdir.

Shunday qilib, bolalar folklori namunalari xalqimizning o'z farzandi tarbiyasiga, binobarin, xalqi, yurti kelajagiga o'ta mas'uliyat bilan yondashganini va qanchalar e'tibor bilan qaraganini ko'rsatadi. Bu e'tibor esa o'z navbatida ajdodlar xotirasiga ham hurmat tuyg'usining kuchayishiga sabab bo'lgan. Bu an'analar, ayniqsa, mustaqillik yillarida yanada keng ommalashdi. Binobarin, ular ma'naviy merosimizning nodir durdonalari sifatida yana asrlar osha davom etaveradi. Bunga esa barchamiz birdek hissa qo'shmog'imiz kerak!

#### **ADABIYOTLAR:**

1. Jahongirov F., O'zbek bolalar folklori, -T., 1975.
2. Jumaboyev M., Bolalar adabiyoti. -T.: O'qituvchi, 2011.
3. Masharipova Z., O'zbek xalq og'zaki ijodi.-T., 2008.
4. Safarov O., O'zbek bolalar poetik folklori, -T., 1985.

